

**PAYARIQ TUMANINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARINING
SAMARQAND VILOYATI YALPI HUDUDIIY MAHSULOTI MIQDORIGA
QO'SHGAN ULUSHI.**

*Navoiy davlat universiteti "geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi
Abdusalomov Inomjon Zubaydullo o'g'li.*

Annotatsiya: Maqolada Payariq tumanining iqtisodiy salohiyati va bir qancha sohalaridagi iqtisodiy korsatkichlari korsatilgan va tumanning geografik joylashuvi, tarixi va demografik xolati haqida ma'lumot berilgan.

Annotation: The article presents the economic potential of Payariq district and various economic indicators across different sectors. It also provides information about the district's geographical location, history, and demographic situation.

Аннотация: В статье представлены экономический потенциал Пайарыкского района и различные экономические показатели по секторам. Также приведена информация о географическом положении района, его истории и демографической ситуации.

Kalit so'zlar: Payariq tumani, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, tashqi savdo, sanoat, migratsiya, kichik biznes, eksport, import, uzumchilik, statistika.

Payariq tumani — O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (markazi Chelak qishlog'i bo'lgan). 1953-yil Payariq tumanining bir qismidan Narimonov tumani tuzilgan. 1959-yilda Narimonov tumani Payariq tumaniga qo'shilgan (markazi Narimonov qishlog'i). 1991-yilda Payariq tumanidan Chelak tumani ajralib chiqqan. 2001-yilda yana Payariq tumani bilan Chelak tumanlari birlashtirilib, ular negizida Payariq tumani tashkil qilindi (markazi Payariq sh.). Tuman hududi Nurota tog' tizmalarining janubida joylashgan. Relyefi shimolida tog'lar, adirlar, tog' oralig'i botiqlari, jan. qismi tekislikdan iborat.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda davlat iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishni ko'zda tutuvchi qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish viloyatlar va tumanlar kesimida oshi bormoqda. Biz buni raqamlarda jadval tarzida ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Payariq tumani iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar kesimida (mlrd so'mda)

Payariq tumani	2020	2021	2022	2023	2024 -yil yanvar -dekabr
Qurilish ishlari	348,1	471,9	863,0	1 344,4	1 491,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot	3 019,4	3 656,5	3 899,9	4 951,8	5 553,0
Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	523,7	654,7	818,1	991,0	1 335,4
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	472,1	1 270,6	682,7	619,4	1 556,6
Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi	663,1	830,8	955,7	1 104,6	1 061,5
Shahar va qishloq aholisi soni (ming kishi)	249,5	260,3	266,9	273,3	279,8

Payariq tumani so'nggi yillarda iqtisodiy jihatdan sezilarli darajada o'sish kuzatilayotgan hududlardan biri hisoblanadi. Quyida 2020—2024 yillar davomida tuman iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Qurilish ishlari sohasida sezilarli o'sish kuzatildi. 2020 yilda qurilish ishlari hajmi 348,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 1 491,9 mlrd so'mga yetdi. Bu esa to'rt yil ichida qurilish hajmining 4,3 baravar oshganini ko'rsatadi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ham barqaror o'sish sur'atini saqlab qoldi. 2020 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmi 3

019,4 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024 yilda bu koʻrsatkich 5 553,0 mlrd soʻmga yetdi. Ushbu sektorning oʻsishi asosan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ortishi bilan bogʻliq.

Hududlar boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlar hajmi ham barqaror rivojlanmoqda. 2020 yilda koʻrsatilgan xizmatlar hajmi 523,7 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2024 yilga kelib 1 335,4 mlrd soʻmga yetdi. Yaʼni, ushbu soha 2,5 baravar oʻsish kuzatildi.

Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2020 yilda 472,1 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2021 yilda ushbu koʻrsatkich 1 270,6 mlrd soʻmga yetdi. Keyingi yillarda biroz pasayish kuzatildi. 2022 yilda 682,7 mlrd soʻm, 2023 yilda esa 619,4 mlrd soʻmni tashkil etdi. Biroq, 2024 yilda ushbu koʻrsatkich yana oʻsib, 1 556,6 mlrd soʻmga yetdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2020—2023 yillarda barqaror oʻsish surʼatini saqlab kelgan. 2020 yilda 663,1 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2023 yilda bu koʻrsatkich 1 104,6 mlrd soʻmga yetdi. Biroq, 2024 yilda biroz pasayish kuzatilib, 1 061,5 mlrd soʻmni tashkil etdi. Bu pasayishning sabablari orasida inflyatsiya va isteʼmol bozoridagi oʻzgarishlarni koʻrsatish mumkin.

Hudud iqtisodiy oʻsishi bilan birga, aholi soni ham ortib bormoqda. 2020 yilda tuman aholisi 249,5 ming kishini tashkil qilgan boʻlsa, 2024 yilga kelib bu koʻrsatkich 279,8 ming kishiga yetgan. Toʻrt yil ichida 30,3 ming kishilik oʻsish kuzatilgan.

Payariq tumani soʻnggi yillarda iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanib, qurilish, xizmatlar, qishloq xoʻjaligi va investitsiya yoʻnalishlarida ijobiy natijalarga erishmoqda. Ayniqsa, 2024 yilda investitsiyalar va qurilish sohasida yuqori oʻsish kuzatildi. Chakana savdo hajmidagi pasayish esa iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi oʻsish bilan qoplangan.

Payariq tumanida qishloq xoʻjalik mahsulotlaridan uzum yetishtirish boyicha Samarqand viloyatida oldingi oʻrinlarda turadi. Tuman hududida uzumni qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Qoʻshimcha ravishda qoʻshimcha ish oʻrinlari yaratilishi mumkin.

Payariq tumani oʻzining baʼzi iqtisodiy salohiyatlari bilan boshqa tumanlardan ajralib turishi mumkin. Agar ana shunday sohalar rivojlantirilsa tuman iqtisodiy koʻrsatkichlari ijobiy tomonga oʻsishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, samstat.uz, payariq tumani hokimligi maʼlumotlari